эктрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: TV7802503873

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

№ 0J84461451

**1. Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2. Loyihaning nomi:** Bog'ot tuman Tibbiyot birlashmasi bilan "JANUB MED SIFAT" MCHJ bilan byudjetdan mablag' oluvchi tashkilot va muassasalarga dori-darmon va tibbiy vositalarni etkazib berish to'g'risida.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:** Bog'ot tumani Tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil 5-yanvar kuni markazga yuborilgan. Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilingan holda ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog'ot tumani yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti:** **G.Urazimbetov**

**06.01.2022**

# BOG‘OT TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI BO‘YICHA:
## SHARTNOMA

2022 yil «0» - I    05/01-2 -son    Bog‘ot shaharchasi

**«JANUB MED SIFAT» M.Ch.J** keyingi o‘rinlarda «Ta’minotchi» deb yuritiladi. O‘zining Nizomi (nizomi,ishonchnoma)asosida ish yurituvchi Xushmatov N. nomidan bir tomondan (nizomi,ishon noma )asosida ish yurituvchi Bog`ot tuman Tibbiyot birlashmasi keyingi o`rinlarda «Iste`molchi» deb yuritiladi, O`zining Nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi A.Saidov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar xakida tuzdilar.

### 1. SHARTNOMANING MOHIYATI

1.1.«Ta’minotchi» «Iste’molchi»ni bir marotabali yoki yillik talabnomasi asosida dori-darmon va tibbiyot maxsulotlari bilan ta’minlash «Iste’molchi» olgan maxsulot qiymatini «Ta’minotchi»ning bankidagi tegishli xisob-raqamiga kelishilgan muddatda o`tkazib berishni o‘z zimmasiga oladi.
1.2.Shartnomaning umumiy baxosi **52 432 000 (*ellik ikki million to’rt yuz o’ttiz ikki ming*)** so`mni tashkil etadi. Yetkazib berilgan dori-darmonlar va tibbiy vositalar bo`yicha xisob-kitoblar mazkur shartnomaning grafigi asosida byudjetdan ajratilgan mablag`lar doirasida, 2021 yilgi xarajatlar smetasidagi limitlardan oshmagan xolda to`lanadi.

### 2.MAHSULOT SIFATI

2.1. «Iste`molchi»ga O`zbekiston Respublikasida farmakologik ro`yxatdan o`tgan tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan sifat, markirovka va o`ramlari farmasevtik va texnik talablariga javob beradigan xamda sifat sertifikatiga ega bo‘lgan ishlatish muddati 50 % dan kam bo‘lmagan dori-darmonlar va tibbiy maxsulotlar yetkazib beriladi.

### 3.MAHSULOTNI YETKAZIB BERISH SHARTLARI

3.1. Maxsulotlar «Iste`molchi»ga o`zaro kelishilgan transport vositalarida to‘lov talabnomalari va boshqa xujjatlar bilan ko`shib jo`natiladi. Yukni jo`natish bilan bog‘lik barcha xarajatlar «Ta’minotchi»ning zimmasiga yuklatiladi.
3.2 Giyoxvand, prekursorlar va zaxarli va psixotrop dori-darmonlar «Iste`molchi» tomonidan tegishli xuquqiy organlar tomonidan maxsus ruxsotnomalar bilan «ta`minotchi» «Iste`molchi»ning omborxonasidan olib ketiladi.

### 4.HISOB-KITOB QILISH SHARTLARI

4.1. Ushbu shartnomaning umumiy summasi: **52 432 000 (*ellik ikki million to’rt yuz o’ttiz ikki ming*)** so‘mni tashkil etadi.
4.2.Sotib olinadigan dori-darmon uchun oldindan to`lov miqdori **15 729 600 (o’n besh million yetti yuz yigirma to’qqiz ming olti yuz )** so`mni, ya`ni belgilangan summaning 30 % foizini tashkil qiladi va bu oldindan to`lov 2022 yilning yanvar oyida amalga oshiriladi, Xisob-faktura takdim etilgandan so‘ng 70 % to`lov amalga oshiriladi.
4.3.To‘lov shakli nakd pulsiz pul ko`chirish yo`li bilan amalga oshiriladi.

### 5.TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

5.1. Tomonlar ushbu shartnomani qisman yoki to‘liq bajarmaganliklari uchun mulkiy javobgardirlar
5.2.Shartnomaning 4.1. bandiga asosan «Ist’emolchi» maxsulotning to‘lanmagan qiymatini bir oydan kechiktirib tulashga yo‘l qo`ysa kechiktirib tulanayotgan summadan xar bir kun uchun 0,04% Ta’minotchini foydasiga penya to`laydi. Lekin penya qiymati to‘lanmagan summaning 50 % dan ortiq bo`lmasligi kerak.
5.3.Shartnomaning 2.1. bandiga asosan «Ta`minotchi»tomonidan sotilgan maxsulot tegishli xujjatlar bilan tasdiqlansa u xolda «Ta`minotchi» sifatsiz maxsulotni sifatli maxsulot bilan almashtirib beradi va bu bilan bog`lik bo`lgan barcha xarajatlarni o‘z zimmasiga oladi.
5.4.«Ta’minotchi» o‘z vaqtida buyurtmada ko‘rsatilgan maxsulotni omboridan «Iste’molchi»ga o‘zi yetkazib bermasa agar bu tomonlarning kelishuviga asosan ko‘zda tutilgan bo`lsa «Taminotchi» «Iste’molchi»ga maxsulotni kechiktirib yetkazgan qiymatining 0.5 % peniya kiymati yetkazib berilmagan maxsulot qiymatining 50 % oshmasligi kerak.
5.5. «Ta`minotchi»ning xisob kitob fakturasida maxsulot solingan qutilar (tara)ni qaytarilishi qayd etilgan bo`lsa qutilar 7 kun ichida kaytarilishi kerak. Aks xolda qutilar qiymatidan quyidagicha jarima solinadi 30 kundan kechiktirilsa 10%, 40 kundan ortiq kun uchun 20%.
5.6 «Ta’minotchi» yetkazib bergan mahsulotlari assortimenti va sifati bo’yicha talabga javob bermasa haridor mahsulotni qabul qilishni rad etadi hamda sotuvchi shu mahsulotning 20 % miqdorida jarima to’laydi.

### 6.FORS-MAJOR HOLATLARI

Кўриб чиқган юрист: URAZIMBETOV GULMURAT SULTANMURATOVICH. Ҳужжат рақами: TV7802503873

6.1. Tomonlarning xoxish-istagiga bog'lik bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan xolatlar oqibatida tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarmasliklari ushbu shartnoma shartlarini buzish deb xisoblanmaydi.
6.2. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf shartnoma shartlarini bajarishga to'sqinlik qilayotgan xolatlar va ularning ta'siri xaqida ikkinchi tarafga xabarnoma berish.
6.3. Fors-major xolatlarini vaj qilib keltirayotgan taraf ularning tasdig'i sifatida vakolatli davlat organining tegishli xujjatini taqdim etishi shart.
6.4. Tomonlarning xoxish-istagiga bog'lik bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan xolatlar sifatida quyidagilar nazarda tutiladi:
6.5. Engib bo'lmas kuch sifatida tabiiy ofatlar;
6.6. Yangi qabul qilingan konun xujjatlari.

## 7.NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

7.1. Ushbu shartnomada yoki unga bog'lik masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan xal qilinadi.
7.2. Ushbu shartnomani tuzish bajarish, o'zgartirish kiritish va bekor qilish vaqtida taraflar ustida kelib chikadigan nizolar shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar taraflarning kelishuviga binoan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda davogar joylashgan xududning iqtisodiy sudi orqali xal qilinadi.
7.3. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha masalalarni taraflar O'zbekiston Respublikasi fukorolik kodeksi va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risidagi konunga amal kilgan xolda tartibga keltiriladi.

## 8.XULOSA TALABLARI

8.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab 30.12.2022 yilgacha qadar amal qiladi.
8.2. Ushbu shartnoma bo'yicha barcha va ko'shimcha o'zgartirishlar yozma ravishda tuzilib tomonlar tomonidan imzolanishi lozim.
8.3. Ushbu shartnomaning tugatilishi yoki buzilishi amaldagi konunchilikka muvofiq xal qilinadi.
8.4. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxadan iborat bo'lib tomonlarning xar birida bo'ladi.
8.5. Ushbu shartnoma bo'yicha talab qilish xuquqi uchunchi shaxslarga fakat ikkinchi tomonning yozma roziligi asosida amalga oshiriladi.

## 9.BOSHQA HOLATLAR

9.1. Ushbu shartnoma ikkala taraf uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lib 2 nusxada tuzilgan, xamda ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil fevraldagi PK-594-sonli qaroriga asosan G'aznachilik bo'limlaridan ruyxatdan o'tkazilgan vaqtdan qonuniy kuchga kiradi.

## 10.TOMONLARNING YuRIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

| Sotuvchi | Xaridor |
|---|---|
| «JANUB MED SIFAT» MChJ<br>Manzil: Karshi sh. I Karimov kuchasi 266<br>Tel : +99875-225-71-65<br>x/r 20208000005233315001<br>Xamkorbank Qarshi sh filiali<br>MFO: 01031 OKED: 46460<br>INN: 307452184<br><br>Xushmatov.N. D | Bog'ot tuman Tibbiyot birlashmasi<br>Manzil: Xorazm viloyati Bog'ot shaxarchasi Toshkent ko'cha №2<br>Tel/faks 62-31-52-531<br>sh/x/v 100022860332047072120054009<br>STIR: 200426871 OKONX: 86100<br>Moliya vazirligi G'aznachiligi<br>G'azna x/v 23402000300100001010<br>Toshkent shaxar Markaziy bank XKKM<br>MFO: 00014<br>G'aznachilik.bo'linmasi.STIR 201122919<br><br>Raxbar: A.Saidov |
| | |

# S P E S I F I K A S I Y A

| «JANUB MED SIFAT» MChJ | Bog'ot tuman Tibbiyot birlashmasi |
|---|---|
| Manzil: Karshi sh. I.Karimov kuchasi 266<br>Tel: +99875-225-71-65<br>x/r 20208000005233315001<br>Xamkorbank Qarshi sh filiali<br>MFO: 01031 OKED: 46460<br>INN: 307452184 | Manzil: Xorazm viloyati Bog'ot shaharchasi Toshkent ko'chasi №2<br>Tel faks 62-31-52-531<br>sh/x/v 100022860332047072120054009<br>STIR: 200426871 OKONX: 86100<br>Moliya vazirligi G'aznachiligi<br>G'azna x/v 23402000300100001010<br>Toshkent shaxar Markaziy bank XKKM<br>MFO: 00014<br>G'aznachilik bo'linmasi STIR 201122919 |

| | NOMI | O'lov birligi | Miqdori | Narxi | Summa |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Sistema infuzion steril odnokratnogo primeneniya | dona | 8 000 | 3 000 | 24 000 000 |
| 2 | Shpris in'eksiona steril odnokratnogo primeneniya 2 ml s iglami | dona | 16 000 | 425 | 6 800 000 |
| 3 | Shpris in'eksion steril odnokratnogo primeneniya 5 ml s iglami | dona | 24 000 | 498 | 11 952 000 |
| 4 | Shpris in'eksion steril odnokratnogo primeneniya 10 ml s iglami | dona | 16 000 | 605 | 9 680 000 |
| | **Jami** | | | | **52 432 000** |

***Jami : ellik ikki million to'rt yuz [illegible] ikki ming so'm***

**Sotuvchi** ____________ **Xushmatov.N. D**

**Xaridor** ____________ **A.Saidov**